

Tabiiy asosli yangi avlod preparatlari

O'zR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo institutida shirinmiya ildizidan birinchi marotaba ajratib olingen glitsirrizin kislota asosida qator preparatlar, shu jumladan, supramolekulyar kompleksi - DAG-1 ishlab chiqildi. Supramolekulyar kompleks ta'siri biokimyoviy mexanizmini o'rganish asosida birinchi marta ularning g'o'zani sho'rланish va fitopatogenlarga qarshi chidamlilikni oshirish induktorlari ekanligi aniqlandi. Ushbu preparatlar nanodozalarda (10-7M) g'o'zaning stress chidamliliga javobgar proantioksidant tizimi fermentlari faolligini sezilarli darajada oshiradi, preparat o'sish energiyasini oshirib, chigitning dalada unib chiqishini tezlashtiradi va g'o'zaning qimmatli xo'jalik belgilarini yaxshilaydi.

2018-yil 26-mayda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yuz bergan "tuz bo'roni" oqibatlarini tugatish maqsadida fermer xo'jaliklari paxta maydonlarida DAG-1 va DAG-2 preparatları qo'llanildi. Fermer xo'jaliklari Assotsitsiyasining xulosalariga ko'ra, preparatlar bilan ishlov berilgan maydonlarda paxta hosili yaxshi olingen.



DAG-1 va DAG-2 preparatlarini Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida keng miqyosda joriy etish uchun O'zR FA Bioorganik kimyo instituti Fermentlar kimyosi laboratoriyasida DAG-1 preparati hamda respublika paxta zavodlarida chigitlarga ishlov berishda qo'llaniladigan "Vitovaks" va "P-4" fungitsidlari bilan kompozitsiya yaratish maqsadida biokimyoviy tadqiqotlar o'tkazildi.

Natijalar preparatlarning bir-biriga mos kelishini, sinergetik ta'sir etishini ko'rsatdi. Kompozitsiya ildiz tizimini nazoratga nisbatan 4-5 marotaba uzaytirdi, g'o'za o'sishi va rivojlanishiga javob beruvchi antioksidant tizimi fermentlari faolligini oshirdi.

Fermerlar ma'lumotiga ko'ra, DAG-1 preparati va P-4 fungitsidi kompozitsiyasi bilan ishlov berilgan chigitlar nazoratdagiga nisbatan g'o'za nihollari baquvvat ildiz tizimiga ega, ushbu fermer xo'jaliklaridagi g'o'zani rivoji bo'yicha Boyovut tumanidagi boshqa paxta maydonlariga nisbatan oldinda bormoqda va paxta terimi natijalariga ko'ra hosildorlik 6-7 sentnerga ortgan.



O'zR Qishloq xo'jaligi vazirligi roziligi hamda "O'zpaxtasanoat" tavsiyalari asosida hozirgi kunda Sirdaryo viloyatining Boyavut tumani "Baxt" paxta tozalash zavodida 2020-yil paxta hosili uchun 900 tonna urug'lik chigitni DAG-1 va P-4 fungitsid kompozitsiyasi bilan ishlovlanshiga shartnoma tuzildi. Bu urug'luk chigitlar klaster xo'jaliklarining 30000 hektar sho'rangan yer maydonlariga ekiladi. Sirdaryo viloyatida "Malik" paxta tozalash zavodida 75 tonna urug'luk chigitini kompozitsiya bilan ishlovlansib, 2500 hektar sho'rangan maydonlarga ekiladi.